

O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi
“San’at olami–talabalar nigohida” mavzusidagi
talabalar ilmiy-amaliy anjumani

AXBOROT XATI

O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasida **2024-yil 3-may kuni**
“San’at olami–talabalar nigohida” mavzusida talabalar ilmiy-amaliy anjumani
o‘tkaziladi.

Konferensiya quyidagi sho‘balarda ish yuritadi:

1. Xoreografiya san’atining buyuk darg‘alari ijodini o‘rganish muammolari va yechimlari
2. Yangi O‘zbekistonda san’atshunoslikning o‘ziga xos muammo va yechimlari
3. San’at va adabiyot: ilmiy va ijodiy izlanishlar

Konferensiyada amal qiluvchi tillar: o‘zbek, rus va ingliz

Konferensiyada madaniyat, san’at va boshqa sohalarda tahsil olayotgan bakalavr
va magistrantlar ishtirok etishlari mumkin.

Konferensiyada ishtirok etish uchun maqolalar topshirish talablari:

- ilmiy maqolalar anjuman yo‘nalishiga oid dolzarb mavzularda, ilmiy tahlil va tugallangan fikrlar asosida, ilmiy taklif va tavsiyalar bilan taqdim etilishi lozim;
- maqola matni Microsoft Word matn muharriri yordamida Times New Roman shriftida, 1,5 intervalda, 14 o‘lchamda terilgan bo‘lib, yuqoridan va pastdan 2 sm, chapdan 3 sm, o‘ngdan 1,5 sm joy qoldirib rasmiylashtiriladi. Maqolaning nomi bosh harflar bilan yoziladi va 1,5 intervaldan so‘ng, muallifning F.I.O. va OTM nomi yoziladi;
- barcha iqtiboslar kvadrat qavsda beriladi [3,112-b.]. Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati matn so‘ngida beriladi. Foydalanilgan adabiyotlar kamida 4-5 ta nomdagi adabiyotni tashkil etishi tavsiya etiladi;
- talabga javob bermaydigan maqolalar chop etilmaydi va qo‘lyozmasi muallifga qaytarilmaydi;
- muallif taqdim etilgan maqolaning ilmiy-nazariy va metodologik jihatdan asoslanganligi, maqolada keltiriladigan raqamlar, ma’lumot va dalillarning aniqligi, to‘g‘riligi hamda plagiatsizlik yo‘l qo‘yilmaganligiga mas’uldir;
- maqola hajmi 5-7 bet, elektron variantda **2024-yil 15-aprelga qadar** tahrirdan o‘tkazib, tashkiliy qo‘mitaning murodova59@mail.ru elektron manziliga yoki (90) 938-37-00 telegram raqamiga yuborilishi lozim;
- fayl nomi muallif familiyasi bilan yozilishi kerak;
- ko‘rsatilgan muddatdan kechikib taqdim etilgan maqolalar ko‘rib chiqilmaydi va to‘plamga kiritilmaydi.

Tashkiliy qo‘mita